

## **60411201- Menejment: madaniy merosni boshqarish bakalavriat ta'lim yo'nalishi**

60411201-Menejment: madaniy merosni boshqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining meyoriy muddati 4 yil.

60411201-Menejment: madaniy merosni boshqarish ta'lim yo'nalishi - fan va turizm sohasidagi ta'lim yo'nalishi bo'lib, turizm sohasida madaniy meros muassasalari, ob'ektlari faoliyatini tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslarini takomillashtirish, turistik korxonalarda, madaniy meros muassasalari, ob'ektlarida tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, rejalashtirish, tashkiliy boshqaruv tarkibini shakllantirish, biznes strategiyasini tahlil qilish, maxsulot va xizmatlarni reklama qilish, marketing tadqiqotlarini o'tkazish, turizm va madaniy meros muassasalari, ob'ektlarida xizmat ko'rsatish faoliyatini tashkil etish, xizmatlar bozorini segmentlash, turizm mahsulot iste'molchilari xulq-atvorini o'rganish, turizm va madaniy meros muassasalari, ob'ektlari faoliyatini boshqarish, tahlil qilish, madaniy meros ob'ektlari faoliyatini rivojlantirish dasturlarini tuzish, madaniy meros muassasalari, ob'ektlari hamda turli mulkchilik shaklidagi turistik va xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyatini rivojlantirishga, istiqbolini belgilashga, kasbiy ko'nikmaga, mutasaddilik qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublari bilan bog'liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

### **Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:**

- madaniy meros agentligi, muassasalari hamda davlat va nodavlat turistik korxona va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va boshqalar;
- muzeylar, arxeologik turistik ob'ektlar, maskanlar va ular bilan bog'liq muassasalar;
- turizmning soha va tarmoqlarida tashkilot, korxona va muassasalar samaradorligi va natijadorligini oshirish jarayonlari;

- turizm sohasida vaziyatli va tizimli yondoshuv tamoyillarini tatbiq etish, davlat va mahalliy boshqaruv qarorlarini amalga oshirish jarayonlari;

- madaniy meros muassasalari, ob'ektlari hamda turizm tashkilotlari va korxonalarida zamonaviy boshqaruv tizimini tashkil etish, tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish, mehnatni rag'batlantirish jarayonlari;

- madaniy meros muassasalari, ob'ektlari hamda turistik firma va kompaniyalar, shuningdek, turli mulk shaklidagi turistik korxonalarni boshqarish, ilmiy tadqiqot muassasalari va mahalliy davlat organlarida iqtisodiy faoliyatni ta'minlash;

- turizm sohasi bilan bog'liq ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlari.